

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI MATEMATIKA
DARSLARIDA MATNLI MASALALARNI O'RGATISHDA
INNOVATSION KLASTER USULINING AHAMIYATI**

*Kuzmanova Gulhayo Baxodirovna
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
O'zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari matematika darslarida o'quvchilarga matnli masalalarni o'rgatishda innovatsion klaster usulidan samarali foydalangan holda ta'limni tashkil etish, masala mohiyatini o'quvchilarga yetkazishda yangi innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida farzandlarinizni milliy, ummuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: maktab, matematika, klister, matnli masala, ta'lim-tarbiya, yechish, texnologiya, o'quvchi, usul, innovatsiya, o'rgatish, o'qitish.

**THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE CLUSTER METHOD IN
TEACHING TEXTBAL PROBLEMS IN MATHEMATICS IN GENERAL
SECONDARY SCHOOLS**

*Kuzmanova Gulhayo Baxodirovna
Teacher at the Department of Primary Education
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region
Republic of Uzbekistan*

Abstract: The article examines the organization of teaching with the effective use of innovative cluster methods of teaching mathematics to schoolchildren in

the lessons of mathematics of a general secondary school, conveying the essence of the problem to schoolchildren through new innovative educational technologies for teaching children national, universal values, education based on.

Key words: *school, mathematics, cluster, text problem, education, solution, technology, student, method, innovation, teaching, learning.*


O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash, professional kadrlarni tayyorlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash orqali yoshlarga ta'lim-tarbiya berish hamda "Umumiy o'rta ta'lim" maktab matematika darslarida matnli masalalarni ko'rinishlari yechish uslublarini innovatsion takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida «o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga klaster usuli asosida shakllantirish va uni amalga oshirish jarayonini tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, muqobil yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashga yo'naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan Uchunchi Renesans jarayonida umumiy o'rta ta'limni innovatsion rivojlantirish, ta'lim sifatiga erishish va ta'lim oluvchilarning bilimdonlik darajasini xalqora talablarga yetkazishda "Klaster" usulidan samarali foydalangan holda matematika darslarida matnli masalalarni yechish uslublarini innovatsion takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-martdagi 258-sonli "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining faolyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga binoan. Chirchiq davlat pedagogika institutida pedagogik innovatsion klasteri tashkil etilgan. Shuningdek matematika darslari yangi innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish, farzandlarini milliy,

ummuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash borasida ta'lim tizimi sohasida ko'plab ishlar olib borilmoqda.

Klaster – bu “tutam”, “bog'lam” degan ma'noni anglatib, u malum bir mavzu bo'yicha erkin va ochiq fikrlashning notekis shaklidir. Bunda, o'rganilayotgan mavzu yoki obyekt to'g'risidagi asosiy tushunchalarga tayangan holda ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan g'oyalar nomlanadi.

Masalan umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fanini o'qitish jarayonida “Klaster” metodidan foydalanish ta'lim oluvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o'rin tutib, u ta'lim oluvchilarga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha erkin va ochiq fikr yuritishga yordam beradi. Klasterga bo'lish quyidagicha amalga oshiriladi.



Mavzuni o'zlashtirish bosqichida olingan ma'lumotlardan foydalangan holda yechim variantlari qancha ko'p bo'lsa, ko'zlangan maqsadga erishish shuncha yuqori bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida klasterlardan o'rinli va to'g'ri foydalanish nazariy va amaliy materiallar bo'yicha egallagan bilimlarni erkin namoyon etishga yordam beradi.

“Masala” atamasidan hayotda turli sohalarda va turli o'quv fanlarida ya'ni matematika, psixologiya, mantiq, pedagogika, fizika kabi fanlarda keng foydalaniladi. Ushbu atama bilan turli tushunchalar beriladi. O'zbek matematik-pedagog olimlaridan G.Izatayevaning “matematik fanlarni modulli texnologiya asosida o'qitishning nazaryasi va amalyoti” monografiyasida matnli masalalarning ta'rifi keltirilgan. Unga ko'ra , matnli masalala -bu matematik muommalarni matnlar asosida ifodalash va matnda uning yechimiga ishora qilishdir. Har bir matnli masalada uning yechimi xususiyatlari ifodalangan bo'ladi . Matnli masala o'qilganda uning yechimini topish uchun matn mazmuniga, qo'yilayotgan muommo mohiyatiga va matnda aks etgan yechim ishoralariga diqqat qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matnli masalalarni yechishga o'quvchilarni o'rgatishning innovatsion klister usuli *asoslari* quyidagilardan iborat:

- Matematika fani mavzularini va o'quv materiallarini mudom yangilab borish, unda ilg'or tajribalarni aks ettirish;

- matnli masalalarning turli variantlarini ishlab chiqish va ularning Matematika fanlari usullari asosida turlicha yechish uslublarini ishlab chiqish;

- o'quvchilarni matnli masalalar yechishga o'rgatishda matematik mutaxasislar, institutlar va ilmiy laboratoriyalarning vakillari yordamidan foydalanish;

- matnli masalalar yechimlarini o'rgatishda umum ta'lim o'rta maktablarining ilmiy va ta'limiy patensiallaridan foydalanish;

- Matematik fanlar bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini maktab ta'limiga joriy etish;

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Maktab laboratoriya" tajriba maydonchalarini tashkil etish va ular yordamida o'quvchilarning matnli masalalarni yechish ko'nikmasini tezkor shakllantirish;

- o'quvchilarda mustaqil fikrlash va matnli masalalarni ijodiy yechimini topish qobiliyatlarini tarkib toptirish.

Mazkur asoslar maktab matematika darslarida innovatsion klasterdan oqilona foydalanish imkoniyatlarini beradi. Chunki innovatsion klaster usuli pedagogika fanlari doktori U.Xodjamqulovning asoslab ko'rsatishiga ko'ra quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Innovatsion klaster subyektlari:

- maktabgacha ta'lim muassasasida;

- *umumiy o'rta ta'lim muassasi;*

- oliy ta'lim muassasii

- ilmiy tadqiqot institutlari.

2. Innovatsion klaster yo'nalishlari:

- *ta'lim;*

- *ta'lim vositalari;*

- ta'lim va fan;

- ta'lim va ishlab chiqarish;

- ta'limni bishqarish.

3. Innovatsion klaster tamoyillari:

- tabiiy aloqadorlik;

- uzviylik va uzluksizlik;

- izchillik;

- vorisiylik;

- yo'naltirilganlik;
- zamonaviylik;
- maqsadni umumiyligi;
- manfaatdorlik;
- o'zoro nazorat [3, 27 b.]

Innovatsion klaster usulining maskur asoslari umumiy o'rta ta'lim maktablari matematika darslarida matnli masalalarni yechishga o'rgatish tizimini klasterlash imkonini beradi. Unda o'qituvchilar, o'quvchilar va ta'limdan manfaatdor shaxslarning o'zoro hamkorligi, bog'liqligi hamda manfaatdorligi yuzaga chiqadi.

Shunday qilib umumiy o'rta ta'lim maktablari matematika darslarida matnli masalalarni o'rgatishda innovatsion klaster usulidan foydalanish yangicha yondashuv hisoblanadi. Bunda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarning teng faolligi asosiy masalasi hisoblanib, uning vositasida maqsadga hamkorlik asosida yetish turadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshket viloyati Chirchiq davlar pedagogika institutuning faolyatini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" gi Qarori.//www.ziyonrt.uz.2019 yil 29-mart.

2. Tojiyev M va bosh. Zamonaviy ta'lim va tarbiya texnologiyalari.- T.,2017

3.Xodjamqulov U. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy- nazariy asoslari.Ped...dok...dess...Avtoreferati.-Chirchiq.,2020

4. Gulhayo Bakhodirovna Kuzmanova, Nurseit Alijan Ogli Beketov (2020). Use Of Historical Materials In Teaching Mathematics In Continuous Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(09), 531-537.

5. Kuzmanova G. B. (2021) Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matnli masalalarning ta'limiy ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences, 2(3), 1154-1159.

6. Narimbetova Z. A. (2021) Matematika fanida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar tafakkurining rivojlantiruvchi omili. Academic research in educational sciences, 2(3), 1253-1261.